

TA'LIMDA KOMMUNIKATSIYON AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Mengatova Khurshida Toshmukhamatovna

TDMAU "Automation and Control" department teacher:

khurshidamengatova@gmail.com , +99890519 00 72

Jumaqulov Ramazon Karim o'g'li TDMAU talabasi:

jumaqulovramazon05@gmail.com

Annotatsiya: Ta'limda axborot texnologiyalari o'rni dars mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarni qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarni oshirish, bundan tashqari ta'limda multimedia vositalarni afzaliklari tadqiq etish .

Kalit so'zlar: Axborot, kommunikatsiya ,texnologiya, kompyuter, informatika, motivatsiya, multimedia.

ANNOTATION:

In studies the role of information technologies in education, the improvement of lesson quality through the use of information technologies during lessons, and the increase of young people's interest in the IT field. In addition, the advantages of using multimedia tools in education are also examined.

Biz bugun axborotlashgan jamiyatlar dunyosida, tobora rivojlanayotgan globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalari (AKIT) hamda intellektual taraqqiyot hal qiluvchi rol o'ynayotgan bir jamiyatda yashamoqdamiz. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1993-yilda ilk bor «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi va shu asosda barcha sohalarda, shu jumladan oliy ta'limda ham kompyuterlashtirish jarayonlariga keng yoi ochildi va imkoniyatlar yaratildi.

AKTning ta'lim jarayonidagi ahamiyati -Masofaviy ta'lim AKT yordamida masofaviy ta'lim imkoniyatlari yanada kengaydi. Misol uchun: - Pandemiya davrida Google Classroom, Zoom va boshqa platformalar orqali ta'limni davom ettirish

amaliyoti yo'lga qo'yildi. - Talabalar geografik joylashuvdan qat'i nazar, dunyoning istalgan nuqtasida ta'limolishimkoniyatiga ega bo'ldi. Raqamli resurslardan foydalanish - Elektron kitoblar, raqamli kutubxonalar va videodarslar o'quv materiallarini yanadaqulayva ommabop qiladi. - Interaktiv platformalar (Quizlet, Kahoot, Duolingo) o'quvchilarning qiziqishini oshirib, o'quvjarayonini o'yinlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.

Hozirgi vaqtda mehnat unumdorligini o'stirish, mahsulot sifatini yaxshilash, bozorda mavjud bo'lgan turli xil talablarni qondirish va tezkor e'tiborga olish, ilm-fanning ishlab chiqarish tarmoqlarini, ayniqsa, elektronika, hisoblash texnikasi,



telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarishni rivojlantirish muammolarini keltirib chiqaradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy

tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy



pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbic etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish

imkonini yaratadi. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Axborotni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish. Axborotlarni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish har xil iqtisodiy obyektlarda har xil kechadi. Bu jarayon boshqarish jarayonlari avtomatlashtirilgan xalq xo'jaligi obyekti faoliyati aks etgan boshlang'ich iqtisodiy hisobotni yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish, amalga oshiriladigan ishlab chiqarish korxonalarini, firmalar va boshqalarda ancha murakkabdir

Iqtisodiy axborotlarni saqlash va yig'ish. Iqtisodiy axborotlarni saqlash va yig'ish — axborotlardan ko'p marta foydalanish, axborotlarni doimiy qo'llash, boshlang'ich ma'lumotlarni qayta ishlashgacha ularni to'plash kabi zaruriyatlaridan kelib chiqadi. Axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, axborot texnologiyasi, modellash, ma'lumotlar manbayi, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta'minlash va boshqa shu kabi ilmiy tushunchalar jamiyatni axborotlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Bello A. I., Adamu M.** (2020). Ta'lim jarayonida multimedia vositalarining o'rni. Ta'lim va amaliyot jurnali, 11(4), 45–52.
2. **Walden universiteti.** (n.d.). Sinfda texnologiyalardan foydalanishning 5 ta asosiy foydasi.
3. **Sonnenschein S. va boshqalar** (2023). Multimedia vositalaridan foydalanish va bu vositalarning o'qituvchilar faoliyatiga ta'siri. Gumanitar va ijtimoiy fanlar aloqasi jurnali, 10, 123.
4. **Telefónica kompaniyasi.** (2023). Ta'limda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)ning 7 ta afzallik va kamchiliklari.
5. **Lamar universiteti.** (2024). Sinfda video va multimedia vositalaridan foydalanishning foydalari.

Saytlar:

1. <file:///C:/Users/%D0%90%D0%B4%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%BE%D1%80/Downloads/YO'ITJ+1403.pdf>
2. <https://www.rymondtn.com/>